



QUMRON YODGORLIKLARINING O'RGANISH ASOSLARI

Roziya Botirova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Dinshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi
+998998723276

botirovaroziya8@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi yillardagi O'zbekistonda din sohasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatda bag'rikenglik tamoyillarini, shuningdek dinlararo hamjihatlikning ta'minlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bag'rikenglik tamoyiliga xizmat qiluvchi dinlarning ta'limoti, tarixi, marosimlari, shuningdek, o'ziga xosliklarini o'rganish dinshunoslik sohasining muammolaridan sanaladi. Jumladan, jahon dinlaridan biri bo'lgan va e'tiqod qiluvchilari soni ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi xristianlik va milliy din hisoblangan, o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan yahudiylik dini ko'pchilik uchun qiziqarli mavzu hisoblanadi. Yahudiy diniy tarixini o'rganish, balki qadimgi Yaqin Sharq madaniyatlarini va ularning hozirgi jamiyatga global ta'sirini tushunish mazkur sohada olib borilayotgan tadqiqotlar muhim sanaladi. Shuning uchun Qumron yodgorliklarini o'rganish, ularning mazmuni va ahamiyatini ochib berish bugungi kunda ilmiy va madaniy jamoatchilik uchun katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Qumron, O'lik dengizi, Esseylar, artefakt, o'ram, apokrif, Qadimgi Ahd, g'or, De Vo, Iosif Flaviy, Xirbet Qumran.

KIRISH. Qumron yodgorliklari – qadimgi Yahudiy madaniyatining muhim izlari bo'lib, ular asosan O'lik dengiz yaqinidagi Qumron g'orlarida topilgan. Mazkur yodgorliklarning o'rganilishi qadimiy qo'lyozmalar, kundalik hayot an'analari va diniy



amaliyotlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Topilmalar qadimgi Yahudiy madaniyati va diniy hayotining noyob guvohnomalari hisoblanadi. Ular XX asrning o'rtalarida O'lik dengiz yaqinidagi Qumron g'orlarida kashf etilgan va dunyo arxeologiyasida yangi davr boshlab bergan. Yodgorliklar tarkibida qadimiy qo'lyozmalar, jumladan, O'lik dengiz qo'lyozmalari, diniy matnlar, maishiy buyumlar va arxitektura qoldiqlari mavjud bo'lib, ular qadimgi yahudiy jamiyatining kundalik hayoti va e'tiqodlari haqida boy ma'lumot beradi.

Qumron qo'lyozmalari Bibliyaning qadimgi nusxalaridan tortib, maxsus diniy yozuvlar va jamoaviy tartib-qoidalargacha bo'lgan keng turdagi matnlarni o'z ichiga oladi. Ular orqali qadimgi Yahudiylarning diniy an'analari, madaniyati va yozma merosi haqida muhim ma'lumotlar olinadi. Bundan tashqari, Qumron hududidagi arxeologik qazilmalar orqali topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari ushbu hududda istiqomat qilgan Esseylar jamoasi hayoti haqida qimmatli dalillarni taqdim etadi.

O'lik dengiz o'ramlari, qadimgi Yahudiy jamoalari hayoti va diniy e'tiqodlarini o'rganish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Qo'lyozmalar tarkibida Injilning qadimiy versiyalari, diniy matnlar va dunyoviy qoidalarni ichiga oladi. Bu topilmalar yordamida tadqiqotchilar qadimgi yahudiylarning yozuv texnikalari, qo'lyozmalarni saqlash usullari va ular ishlatgan materiallar haqida bilimga ega bo'lishdi.

Asosiy qism. Qumron yodgorliklari XX asrning eng muhim arxeologik kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. O'lik dengiz o'ramlari nomi bilan mashhur bo'lgan Qumron yodgorliklari hozirgi Isroil davlati hududidagi Yerixo shahridan 13 km janubda, O'lik dengizining g'arbiy tomonida joylashgan g'ordan topilgan. Qumron yodgorliklari 1946-1956-yillarda kashf etilgan bo'lib, 981 ta matndan iborat to'plamdir¹. Ular uch asosiy toifaga bo'linadi:

¹ Florentino Garcia Martinez. The Dead Sea scrolls translated: The Qumran texts in English. – Leiden, New York, Koln: Brill, 1994. – P 13.



1. *Bibliyaga oid matnlar:* Tanax Bibliyaning 39 kitobidan 37 tasiga oid parchalar, eng qadimgi Bibliya nusxalaridan miloddan avvalgi II asrga oid Ishayo kitobining to'liq nusxasi topilgan. Bu nusxa hozirgi Ishayo kitobi bilan deyarli bir xil bo'lib, matnning uzoq vaqt davomida o'zgarmaganligini ko'rsatadi.
2. *Qumron jamoasiga tegishli matnlar:* Qumron jamoasining ichki hayoti, ijtimoiy tuzilmasi va ibodat qoidalari haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi apokaliptik jang tasviri, bu jamoaning oxiratga oid qarashlarini aks ettiradi. Shuningdek, diniy she'rlar va ibodatlar, ular ko'pincha Xudoga minnatdorchilik bildirish shaklida yozilgan.
3. *Bibliyaning kanonlashtirilmagan matnlari:* yahudiy apokaliptik adabiyotining qadimiy namunalaridan Enoh kitobi, Jubilelar kitobi hamda Qumron g'orlaridan biri (3-g'or)da topilgan maxfiy xazinalar ro'yxatini o'z ichiga oluvchi misdan yasalgan o'ram topilgan bo'lib, u topilma hali ham sirli hisoblanadi².

O'ramlarning topilishi badaviy cho'pon bilan bog'liq. 1947- yilning fevral yoki mart oylarida Muhammad Ahmad al-Hamid ismli yosh badaviy cho'pon yo'qolgan suruvini qidirib, Qumron yodgorliklari joylashgan g'orga kiradi. G'or ichida zig'irga o'ralgan teri qo'lyozmalari bo'lgan katta ko'zalarni topadi. O'ramlar bilan nima qilishni bilmay dovdirab qolgan badaviylar dastlab ularni chodir ustunlariga osib qo'yishdi. Keyin to'plamni noyob buyumlar sotuvchisiga sotadilar. O'ramlar qo'ldan-qo'lga o'tib, professor Jon Trever tomonidan sotib olinadi va shu tariqa kashfiyot dunyoga e'lon qilinadi. Badaviylar o'ramlarni qidirishni davom ettirdilar, chunki g'ordan topilgan topilmalarga qiziqish ortib, ularni sotib olish ommalasha boshladi. Badaviylar boshqa g'orlardan topgan o'ramlari birinchi Qumron g'oridagi topilmalar tasodifiy emasligini va Iudeya cho'lidagi boshqa g'orlarda ham o'ramlar borligini isbotladi. 1951- yildan 1956-yilgacha birinchi g'or

² G. Vermes. The Dead Sea Scrolls: Qumran in Perspective. – New York: Collins World, 1978. – P 75.



atrofidagi 8 kilometr qoyalar o'rganildi. O'n bitta g'orda yozma o'ramlar qoldiqlari topilgan. Badaviylar beshta g'orni, arxeologlar esa yana oltita g'orni topdilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur o'ramlar g'orga milodiy 68-yilda joylashtirilgan. Ko'zalarining og'zi mahkam berkitilgani sababli ular, taxminan, 1900 yil davomida saqlanib qolgan. Ular ibroniy va oromiy tillarida yozilgan. Mazkur topilma 1952-1956- yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida jami 11 ta g'ordan topilgan. Topilmalar qog'oz, teri va misga yozilgan bo'lib, qirq ming qo'lyozma qismlardan iborat. Mazkur qismlar birlashtirilib, besh yuzta kitob qayta ishlandi. Ular yahudiylik va xristianlik dinlarining eng qadimgi yozma manbalari hisoblanadi.

Qumron yodgorliklari kashf etilishidan oldin mavjud eng qadimiy hisoblangan Qadimgi Ahd kitoblarining tarixi milodiy 900 – yillar bo'lgan bo'lsa, Qumron yodgorliklaridagi Ishayo, Habaquq va boshqa ba'zi kitoblarning yozilish tarixi miloddan avvalgi 125-yilga oiddir. Mazkur topilma mavjud manbalardan o'zida 1000 yildan qadimiyroq matnlarni saqlagan.

O'lik dengiz o'ramlarining tarixi bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi: ularning yaratilgan davri, kashf etilishi va o'rganilishi. O'ramlar qadimgi Yahudiya hududining Qumron vohasi atrofida yashagan diniy jamoalar tomonidan yozilgan. Aksariyat olimlar esseylar jamoasi a'zolari tomonidan yozilgan deb taxmin qiladilar. Mazkur jamoa yahudiylikning asosiy oqimlaridan ajralib chiqqan va o'z e'tiqodlariga qat'iy rioya qilgan guruh edi. Tadqiqotlarga ko'ra, O'lik dengiz o'ramlari Rim imperiyasining yahudiylar ustidan hukmronlik qilgan davrida (miloddan avvalgi I asr – milodiy I asr) yaratilgan. Rim bosqinlari va yahudiylar qo'zg'olonlari bu qo'lyozmalarni yashirilishiga sabab bo'lgan. Milodiy milodiy 66–73-yillarda yahudiylar Rim imperiyasiga qarshi bir nechta qo'zg'olon ko'targan. Natijada milodiy 68-yilda Rim qo'shinlari Qumron hududini egallab, u yerni vayron qilishgan³. Shu vaqtda jamoa o'z qo'lyozmalarini sopol idishlarga

³ Roland de Vaux. Archaeology and the Dead Sea Scrolls. – Oxford: British Academy, 1973. – P 107.



joylab, g'orlarga yashirgan deb hisoblanadi. Qo'lyozmalarni saqlash maqsadi diniy merosni himoya qilish va Rim bosqinlaridan xalos qilish edi.

Qumron hududida tadqiqot olib borgan olimlarining fikricha, Qumron vohasi qadimgi tarix kitoblarida tilga olingan esseylar jamoasining boshpanasi bo'lgan. Jamoa boshqalardan ajralgan holatda, cho'lga ketgan va u yerda ikki asr davomida zohidona hayot kechirdilar. Matnlarda ular o'zlarini yahudiylar deb atashgan, bu tarixchi Flaviy tomonidan eslatib o'tilgan yahudiylarning uchinchi yirik jamoasidan biriga to'g'ri keladi.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan izlanishlardan Qumron jamoasining aynan kim ekanligi to'g'risida to'liq dalillar olinmagan. Chunki mazkur hududda yashagan jamoa hayotini to'liq maxfiylikda o'tkazgan, tashqaridan kelgan a'zo o'ta og'ir shartlar orqali qabul qilinadigan va jamiyatdan chiqqan a'zo qayta kira olmaydigan jamiyat haqida gapirganda, manbalar ularning kimligi haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi.

Esseylar Ikkinchi Ma'bad davrining so'nggi ikki yuzinchi yilida (miloddan avvalgi 150-yil, milodiy 70-yil) yashagan yahudiy diniy jamoasi. Esseylar umrini zohidlikka bag'ishlagan bo'lib, asosan faqirlikda kun kechirgan. Ularni bugungi kunda mashhur qilgan narsa Qumron jamoasi esseylar jamoasi bo'lgan va ular O'lik dengiz o'ramlarining mualliflari bo'lishgan deb qarashlardir. Esseylar belgilangan jamoaviy tartib asosida hayot kechirganlar va Musoning qoidalariga Tavrotda yozilganidek, qat'iy rioya qilganlar. Ularning turmush tarzi haqida ma'lumotlar asl manbalar orqali bilish mumkin, ular ba'zi o'ramlarda batafsil hujjatlashtirilgan. Ba'zi olimlar mazkur qo'lyozmalar Esseylar tomonidan yozilgan degan fikrni ilgari surishadi.

XX asrgacha Esseylar insoniyatga faqat yunon manbalaridan ma'lum edi. Biroq 1947-yilda Qumron vodiysidan topilgan qo'lyozmalar bahsli bo'lsa-da, ko'plab yozuvchilar tomonidan esseylar haqidagi eng muhim manba sifatida qabul qilingan. Qumron yodgorliklarida esseylar atamasi tilga olinmagan bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotchilar



qo'lyozmalardagi jamoa Iosif va Filonning yahudiylik tarixiga oid asarlarida kelgan esseylar ekanligiga ishonishadi.

Yana bir olim Krossning so'zlariga ko'ra, o'sha paytda mintaqada boshqa tanho jamoaning yo'qligi, ular ma'badda qurbonlik qilish o'rniga o'zlarining qurbonlik marosimlarini amalga oshirganliklarini davo qilib, Esseylarga tegishli ekanligini qo'llab-quvvatlagan. Arab tilida Xirbet Qumran (Qumron xarobalari) nomi bilan mashhur bo'lgan cho'l majmuasi yaqinida yashagan yahudiy rohiblarining jamoasi bo'lgan Esseylar tomonidan mazkur qo'lyozmalarning yozilganligi olimlar orasida eng keng tarqalgan javobdir⁴. Bu g'oyani 1952-1957 yillar oralig'ida xalqaro arxeologik guruh bilan Qumronda qazish ishlarini olib borgan fransuz arxeologi Roland De Vo ilgari surgan. De Vo turli izlanishlar natijasida bu xulosaga bilan keldi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Qumron yodgorliklari va esseylari o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lmasa-da, boshqa taxminlardan ko'ra esseylar taxmini Qumron jamoatiga ko'proq o'xshashligini ko'rish mumkin. Qumron yodgorliklarini o'rganish nafaqat Yahudiy dinining tarixiy rivojlanishini, balki butun insoniyat madaniyatining muhim bosqichlarini yoritadi. Bu tadqiqotlar diniy matnlar tarixi, qadimiy jamiyatlar hayoti va yozuv texnologiyalari haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

⁴ Roland de Vaux. Archaeology and the Dead Sea Scrolls. – Oxford: British Academy, 1973. – P 124.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Florentino Garcia Martinez. The Dead Sea scrolls translated: The Qumran texts in English. – Leiden, New York, Koln: Brill, 1994. – 558 p.
2. The Dead Sea Scrolls of the Hebrew University. – Jerusalem: Hebrew University Press, 1954-5.
3. Roland de Vaux. Archaeology and the Dead Sea Scrolls. – Oxford: British Academy, 1973.
4. G. Vermes. The Dead Sea Scrolls: Qumran in Perspective. – New York: Collins World, 1978. – 238 p.
5. Patrick W. Skehan, Eugene Ulrich and Judith E. Sanderson. Discoveries in the Judaean Desert, IX: Qumran Cave 4, IV, Palaeo- Hebrew and Greek Biblical Manuscripts. – Oxford, 1992. – 250 p.
6. J. P. M. van der Ploeg, A. S. van der Woude and B. Jongeling. Le Targum de Job de la grotte XI de Qumrân. – Leiden: Brill Academic Publishers, 1971. – 98 p.
7. D. N. Freedman and K. A. Matthews. The Paleo-Hebrew Leviticus Scroll (II QpaleoLev) – Winona Lake: American Schools of Oriental Research, 1985. – 135 p.